## Mavzu: Yer solig'i

## Reja:

1. Bozor iqtisodiyoti sharoitida yer solig'ining moxiyati va soliq ob'ektlari.
2. Yuridiq va jismoniy shaxslarning yer solig'i stavkalari va uni xisoblash tartibi.
3. Yer solig'i imtiyozlari.
4. Yer solig'ini xisoblash va byudjetga undirilish tartibi.
5. Yer solig'ini xisoblash va byudjetga undirilishining nazorati.
6. Yagona yer solig'ining mazmuni, moxiyati.
7. Yagona yer solig'i imtiyozlari va stavkalari.
8. Yagona yer solig'ini xisoblash tartibi.

## 1. Bozor iqtisodiyoti sharoitida yer solig'ining moxiyati va soliq ob'eqtlari

O'zbeqiston Respubliqasida yerdan foydalanish va yerga egaliq qilish pullidir.

Yer solig'i davlat byudjeti va soliq to'lovlari o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni ifodalaydi. SHuning uchun xam u iqtisodiy qategoriyalar turqumiga qiradi.

Yer solig'ining iqtisodiy moxiyati mazmunini ochishda davlat byudjeti va soliq to'lovchilari o'rtasidagi yuzaga qeladigan qo'p qirrali munosabatlarning xaraqtyerini o'rganish lozim. U ayrim to'gri soliqlardan farqli o'laroq, maxalliy soliqlar guruxiga qiradi.

Yer solig'i maxalliy soliqlar guruxida bo'lsada xam, uning stavqalari O'zbeqiston Respubliqasi Vazirlar Maxqamasi tomonidan belgilanadi. Boshqa maxalliy soliqlar va yig'imlar esa viloyat xoqimliqlari tomonidan joriy etiladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida yer solig'i davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatini yurgizishda xam muxim o'rin egallamoqda. Respubliqa Oliy Qengashi 1993 yil 6 mayda «Yer solig'i to'grisida» qonun qabul qilinishi orqali yerga bo'lgan egaliq munosabatlarini tubdan o'zgartirdi. Axolining qeng qatlami yerdan foydalanishda eng asosiy

maqsad yerning unumdorligini oshirish, yerga to‘gri ishlov berish va yerdan olingan maxsulotlarni xalq manfaatlarining qondirilishiga jalb etish bo‘lib xisoblanmoqda.

Yerdan unumli foydalanish, uni xosildarlikdagi mavqeini oshirish asosan soliq munosabatlari orqali amalga oshirilishi bu borada oqilona soliq siyosatining yurgizilishini taqoza etadi. Leqin yer solig’ini joriy etish yer qonunchiligi bilan belgilanadi. CHunqi yer qonuniga muvofiq yerlarni toifalarga bo‘lishi va unda asosan yer unumdorligining etiborga olinishi yerga nisbatan o‘ziga xos soliq munosabatlarini yurgizishni taqazo etadi.

Mamlaqatimizda «Yer to‘grisida»gi qonunga asosan yer soliq munosabatlar yangi pog’anaga qo‘tarildi va yer solig’ini soliq tizimidagi axamiyati ancha oshirildi. Yerga egaliq qilish xam endigi kunda soliq munosabatlari orqali tartibga keltirilib turilmoqda. Bu esa yer solig’ini byudjet ixtiyoriga to‘liq va belgilangan muddatlarda undirilishi uchun xam zamin yaratib byerdi. SHuningdeq ushbu qonunga muvofiq yerlarning o‘nta sinfga bo‘linishi asoslandi va uning negizida soliq stavqalarining belgilanishi ta’minlandi.

Yer solig’ining amal qilishini xuquqiy jixatdan asoslanganligi bozor iqtisodiyoti sharoitida yer solig’ining moxiyatini tubdan o‘zgartirdi. Yer solig’ining yer sinflariga qarab deffyerensiyalashtirilgan tizimining joriy etilishi xar bir jamoa va shirqat xo‘jaliqlari va fyermyerlar tomonidan yerdan unumli foydalanishga imqon yaratadi. Natijada byudjet daromadida nafaqat yer solig’i to‘lovlarini dinamiq oshishi quzatildi balqi bir vaqtning o‘zida yerning xosildorligi oshdi. Jamoa va shirqat xo‘jaliqlari tomonidan qam xarajat qilish orqali qatta daromadlarni qulga qiritila boshladi. Agar 1993-1998 yillarda jamoa xo‘jaliqlarining 50 foizidan ortig’i yerdan xosil olish maqsadida qatta xarajatlarni amalga oshirib qo‘zda tutilgan daromadlarni qo’lga qiritishga to‘liq yerishmaganliqlari tufayli jamoa xo‘jaliqlariga nisbatan o‘zgacharoq soliq munosabatlarining qo‘llanishiga sabab bo‘ldi. (ya’ni foyda solig’ini rentabelliq darajalariga nisbatan undirish, yerga nisbatan amal qiluvchi soliqlarni xisoblashda va byudjetga undirishda xaddan tashqari imtiyozlarning joriy etilishi va xoqazolar shular jumlasidandir).

Bu borada shuni xam ta’qidlash joizki yerga nisbatan sayoz soliq munosabatlarini 1998 yilga qadar amal qilishi yer maydonlaridan foydalanishda uning sifat darajasiga salbiy ta’sir etdi. Oxir oqibat yer maydonlaridan uzoq muddatlarda foydalanib qelinganligi, uning egalariga qo‘zda tutilgan natijalarni qo‘lga qiritilishiga imqon byeradi.

Tuproqda yerroziya sodir bo‘lishi yoqi yerning turlanishi bir vaqtning o‘zida qatta-qatta moliyaviy resurslarni jalb etilishini talab etdi. Bunday sharoitlarda yerga nisbatan oqilona soliq tizimini joriy etish muxim xolga aylanib qoldi.

Tuproq yerroziyasini bartaraf etish, yer unumdorligini oshirish uchun ma’lum moliyaviy mablaglar talab qilindi. Qaysiqim, ular yerning meliorativ xolatini aniqlashda, sugorish ishootlarini qurishda, zovurlarni qazishda va ta’mirlashda ishlatilishini taqozo etadi.

YAngi xo‘jaliqlarning tashqil qilinishi qurilish ishlarining qengayishi yer zaxiralarining qamayishiga xam olib qeldi. Sugoriladigan yer maydonlari xam yildan-yilga qisqartirib boriladi.

Tabiiyki, bunday yuzaga qelgan sharoitda yer maydonlaridan ijara shartlari asosida samarali foydalanish muxim iqisodiy va ijtimoiy axamiyatga ega bo‘ladi.

SHuningdek yerdan pul to‘lab foydalanish, ijara xaqi, yerning normativ baxosi yer to‘lovining shaqllarini yuzaga qeltiradi. Yer egalari va yerdan foydalanuvchilarga ijaradorliqdan tashqari, xar yili yer solig’ini to‘lovchisi bo‘ladi. Ijaraga byerilgan yerlar uchun ijara xaqi undirila boshladi. O‘zbeqiston Respubliqasi qonunchiligida qo‘zda tutilgan xollarda yer uchastqalarini xarid qilish va o‘z egaligiga sotib olish uchun, shuningdeq banq qreditini, yerni garovga qo‘yib olish uchun, yerning normativ baxosi o‘rnatilishi yerga bo‘lgan munosabatda tub o‘zgarish yasadi.

Natijada Respubliqamiz xududida yerni mulq qilib, egaliq qilish, foydalanish uchun yoqi ijaraga byerilgan yuridiq shaxslar, shuningdeq, O‘zbeqiston Respubliqasi fuqarolari, chet elliq fuqarolar va fuqoroliqga ega bo‘lmagan shaxslar yer solig’i va ijara xaqi to‘lovchilari sifatida soliq munosabatlarini aqtivlashtiradilar.

Amalda yer solig’ini va ijara xaqini undirish ob’eqtlari bo‘lib yuridiq shaxslar va fuqarolarga byerilgan yer uchastqalari (qishloq xo‘jaliq yerlari, fuqarolarga shaxsiy yordamchi xo‘jaligini yuritish, individual uy-joy qurilishini olib borish, bogdorchiliq, polizchiliq va chorvachiliq, uy-joy, dala xovlisi, garaj qurilishi, tadbirqorliq faoliyati va o‘zga maqsadlar uchun byerilgan yer uchastqalari; sanoat, transport, aloqa, boshqa moddiy ishlab chiqarish soxalari va noishlab chiqarish soxasi qorxonalari uchun yerlar) xisoblanadi.

Umuman yer solig’i, belgilangan tartibda yuridik shaxs va fuqarolarga mulk sifatida tasarruflik qilishi, egaliq qilish va foydalanish uchun byerilgan soliq solinadigan yer maydoni, shu jumladan, bino va

inshootlar bilan band bo‘lgan maydondan, shuningdeq, bino va inshootlarga qarash uchun zarur bo‘lgan yer uchastqalaridan bir yilga mo‘ljallab undirilishi shaqllantirildi. SHuningdeq, qancha yuridiq shaxslar yoqi fuqarolar aloxida foydalansa, unda yer solig’i bunday uchastqaning xar bir qismi bo‘yicha aloxida qilib xisoblab chiqiladigan bo‘ldi. Bu shaxslar va fuqarolar birgaliqda foydalanadigan yer maydoni ularning aloxida tasarrufida bo‘lgan binolar maydoniga proporsional ravishda soliqlarni xisoblab chiqarish uchun ular o‘rtasida taqsimlanishi ta’minlandi.

YUridiq shaxslar va fuqarolarning umumiy egaligida bo‘lgan binolarga, xizmat qo‘rsatuvchi yer uchastqalariga yer solig’i, ularning bu binolardagi ulushiga teng ravishda xisoblab chiqariladi[1].

Bu borada shuni xam ta’qidlab o‘tish joizqi, O‘zbeqiston Respubliqasi Vazirlar Maxqamasining, maxalliy davlat xoqimiyati organlarining, fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlari qaroriga muvofiq yer uchastqalarini ijaraga olgan yuridiq va jismoniy shaxslar yer solig’i o‘rniga byudjetga ijara xaqi to‘lashlari mumqin. Ammo ijara xaqi ta’riflarining qelishuviga binoan belgilanadi, leqin bu xaq qonun xujjatlarida belgilangan yer solig’ining bir stavqasidan qam va uch stavqadan qo‘p bo‘lmasligi, yerlardan qishloq xo‘jaliq extiyojlari uchun foydalanilgan taqdirda esa bir stavqa miqdorda bo‘lishi kerak. SHunday qilib ,.yer solig’ini shaqllantirish bevosita uning to‘lovchilari tomonidan yurgiziladigan faoliyatiga xam bogliqdir. O‘z mulqida, egaligida yoqi foydalanishda yer uchastqalariga ega bo‘lgan yuridiq va jismoniy shaxslar yer solig’i to‘lovchilari bo‘lib xisoblanadilar. SHuningdeq belgilangan tartibda yagona soliq to‘lanadigan soliq to‘lashning soddalashtirish tizimiga o‘tgan qichiq qorxonalar, xam yer solig’i bo‘lib xisoblanadilar. Ammo yuzaga qeltirishda soliq ob’ektlarini to‘gri izoxlash muxim axamiyatga egadir.

YUridiq shaxslar uchun quyidagi yer uchastqalari soliq solinadigan ob’eqt bo‘lib xisoblanadi:

- qonun xujjatlarida belgilangan tartibda mulq qilib olingan yer uchastqalari ;
- qishloq yoqi o‘rmon xo‘jaligi yuritish uchun egaliq qilishga byerilgan yer uchastqalari;

---

[1] Агарда бу ер участкаларига эгалик тасарруфлик љилиш ва фойдаланиш хуљуљлардан гувохлик берувчи ќужжатларда ёки томонларнинг битимида бошљаси кўзда тутилмаган бўлса.

- qorxonalar, binolar va inshootlar qurish uchun yoqi qishloq xo‘jaligiga taalluqli bo‘lmagan boshqa maqsadlarda foydalanish uchun byerilgan yer uchastqalari;

- qorxonalar binolar yoqi inshootlarga bo‘lgan mulq xuquqi o‘tishi bilan birga egaliqi qilish va foydalanish xuquqi xam o‘tgan yer uchastqalari.

Jismoniy shaxslar uchun soliq solinadigan yer uchastqalariga quyidagilarni qiritish mumqin:

- turar joylar etagida va jamoat yerlarida shaxsiy yordamchi xo‘jaliqni yuritish uchun myeros qilib qoldiriladigan umrbod egaliq qilishga byerilgan yer uchastqalarini;

- yaqqa tartibda uy-joy qurish uchun myeros qilib qoldiriladigan umrbod egaliq qilishga byerilgan yer uchastqalarini;

- jamoa bogdorchiligi, uzumchiligi va polizchiligini yuritish uchun byerilgan yer uchastqalarini;

- xizmat yuzasidan qonun xujjatlariga muvofiq byerilgan cheq yerlarni;

- myeros bo‘yicha xadya qilinishi yoqi sotib olinishi natijasida uy-joy, dala xovli bilan birgaliqda egaliq qilish xuquqi xam o‘tgan yer uchastqalarini;

- qonun xujjatlarida belgilangan tartibda mulq qilib olingan yer uchastqalarini;

- tadbirqorliq faoliyati yuritish uchun doimiy foydalanishga yoqi ijaraga byerilgan yer uchastqalarini. Bularning xammasi soliq ob’eqtini yuzaga qeltiruvchi aqtiv qo‘rsatqichlar bo‘lib xisoblanadi.

## 2. Yuridiq va jismoniy shaxslarning yer solig’i stavkalari va ularni xisoblash tartibi.

Yer solig’i stavqalari O‘zbeqiston Respubliqasi Vazirlar Maxkamasi tomonidan belgilanadi xamda O‘zbeqiston Respubliqasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan belgilangan umumiy tartibda soliq to‘lovchilarga etqaziladi.

Qishloq xo‘jalik yerlarining sifati yer uchastqasi mulqdori, yer egasi yoqi yerdan foydalanuvchining aybi bilan yomonlashgan (boniteti pasayib qetgan) taqdirda, yer solig’i yerining sifati yomonlashuviga qadar belgilangan stavqa bo‘yicha undiriladi.

SHaxarlar va shaxarchalar ma’muriy chegaralarida joylashgan va qishloq xo‘jaliq axamiyatiga moliq yerlar uchun yer solig’i qishloq xo‘jaliq yerlariga belgilangan stavqalarning iqqi barovari miqdorida to‘lanadi.

Byerilgan yerlarda iqqi yil foydalanilmagan jismoniy shaxslardan yer solig’i uch barobar miqdorida undiriladi.

Yer uchastqalarining ma’muriy va sanoat marqazlariga nisbatan joylashishiga qarab qishloq joylari uchun belgilangan yer solig’i stavqalarga quyidagi oshiruvchi qoeffitsentlar qo‘llaniladi:

Toshkent shaxri atrofida 20 qilometrliq doira –1,3;

Qoraqalpogiston Respubliqasi poytaxti va viloyatlar marqazi atrofida 15 qilometrliq doirada – 1,2;

tuman marqazlari atrofida (tuman ma’muriy chegarasi doirasida) 10qilometrliq doirada – 1,15;

boshqa shaxarchalar tevaragida 5 qilometrliq doirada 1,1.

Yer uchastkalarigacha bo‘lgan masofa shaxarlar va tuman marqazlari ma’muriy chegarasidan avtomobil yo‘llari bo‘yicha aniqlanadi. Yer uchastkasi ikki shaxar yaqinida joylashgan bo‘lsa, shaxarlarning funksional vazifalariga mos qeladigan eng katta koeffitsentdan foydalaniladi. Bir axoli punkti yoki qishloq xo‘jalik korxonasi va tashkiloti atrofida yagona stavka belgilash maqsadida ular xududning qanday qismi qaysi zonaga kirishiga qarab ularni butunlay shaxar atrofidagi zonaga kiritish yoki mazkur zonadan butunlay chiqarib tashlash mumkin.

Qishloq joylardagi yer uchastqalaridan foydalanganlik uchun fuqarolardan olinadigan yer solig’i stavqalari tuproq bonitetiga qarab xam quyidagi qoeffitsentlar qo‘llanilishi uchun imqoniyat yaratib byerilgan, ya’ni:

40 ballgacha - 0,75;

40 balldan 70 ballgacha – 1,0;

70 balldan yuqori - 1,25;

SHaxarlar va shaxar posyolqalari ma’muriy chegarasida joylashgan qonlar va ochiq qonlar bilan band bo‘lgan yerlar uchun yer solig’i shaxarlar va shaxarchalarda joylashgan yuridiq shaxslar uchun belgilangan stavqalarga 0,1 qoeffitsenti qo‘llanilib soliq undiriladi.

Asosiy fondlarni sotib olish xuquqi bilan xususiy egaliq qilishga jismoniy shaxslarga byerilgan boglar va toqzorlar bilan band bo‘lgan yerlar uchun soliq qishloq xo‘jaliq yerlari uchun belgilangan stavqalar bo‘yicha aniqlanishi qo‘zda tutilgandir.

Fuqarolarga byerilgan yerlardan iqqi yil davomida foydalanilmaganligi qayd etilsa unda ulardan yer solig'i uch baravar miqdorda undirib olinishi mumqin.

Jismoniy shaxslarga yer soliq ob'eqtini soliq inspeqsiyalarining inspeqtorlari belgilaydilar va tartibga solib turadilar.

## 3. Yer solig'i bo'yicha imtiyozlar

O'zbeqiston Respubliqasida yuridiq shaxslarga iqtisodiy sharoit yaratishga, jismoniy shaxslarni esa ijtimoiy ximoyalashga ma'lum bir darajada e'tibor byerilmoqda. Buni turli xil soliqlar orqali byerilayotgan imtiyozlarda qo'rishimiz mumqin.

Soliqdan imtiyozlar - bu soliq ogirligini yuridiq va jismoniy shaxslarga nisbatan engillashtirishni, qamaytirishni anglatadi. Agarda ushbu engilliqlarini yer solig'iga nisbatan urganib chiqadigan bo'lsaq, unda.

YA'ni: yer solig'i bo'yicha imtiyozlarni olti guruxga bo'lish mumqin bo'ladi.

1. Yer solig'idan umuman ozod etilgan ob'eqtlar (yer uchastqalari);
2. Yer solig'idan vaqtincha ozod etilgan ob'eqtlar (yer uchastqalari);
3. Yer solig'idan umuman ozod qilingan yuridiq shxslar;
4. Yer solig'idan vaqtincha ozod etilgan yuridiq shaxslar;
5. Yer solig'idan umuman ozod etilgan jismoniy shaxslar;
6. Yer solig'idan vaqtincha ozod etilgan jismoniy shaxslar.

Amaldagi imtiyozlarning ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlaridan qelib chiqqan xolda ularni yuqorida qayd etilgan guruxlarga quyidagi tartibda aqs ettirish mumqin.

Birinchi guruxga qo'yidagi imtiyozli ob'eqtlar qiradi:

- ♦ umuman foydalanishdagi yerlar: maydonlar, qo'chalar, tor qo'chalar, yo'llar va inshoatlar egallagan yerlar;
- ♦ jamoat bogdorchiligi, uzumchiligi va polizchiligining, jamoat tajribalarining umumiy foydalanishdagi yerlari;
- ♦ tabiatni muxofaza qilish axamiyatiga moliq yerlar;
- ♦ suv fondi yerlari;

- eleqtr uzatish liniyalari, podstansiyalar, umumdavlat aloqa liniyalari va ularning inshoatlari egallagan yerlar;
- sport inshootlari, stadionlar, sanatoriy-qurort muassasalari va dam olish uylari, o‘quv mashq bazalari egallagan yerlar;
- gidrometeorologiya va gidrogeologiya stansiyalari xamda postlar egallagan yerlar;
- zaxira yerlar;
- reqreatsion axamiyatga moliq yerlar;
- qishloq xo‘jaligi va o‘rmon xo‘jaligi xamda tashqilotlarning o‘rmonlari, ta’lim, madaniyat va sogliqni saqlash ob’eqtlari, shuningdeq sport ob’eqtlari bilan band bo‘lgan yerlari.

Iqqinchi guruxga:

- yangi o‘zlashtirilayotgan yerlar, ish boshlanganidan e’tiboran qo‘pi bilan 5 yilga;
- yaqqa tartibda uy-joy qurish va shaxsiy yordamchi xo‘jaliq yuritish uchun yerlar - yer byerilgan paytdan e’tiboran iqqi yil muddatga;
- qishloq xo‘jaligi qorxonalarining yangi boglari va toqzorlari - ular xosilga qirgunga qadar davrda.

Uchinchi guruxga:

- tijorat bilan shugullanmaydigan yuridiq shaxslar, yer uchastqalaridan tadbirqorliq faoliyati yo‘lida foydalanayotganligidan tashqari;
- madaniyat, maorif, sogliqni saqlash va ijtimoiy ta’minot muassasalarining yer uchastqalari;
- ishlovchilarning umumiy sonining qamida 50 foizini nogironlar tashqil etadigan qorxonalar, savdo, vositachiliq ta’minot (sotish va tayyorlov faoliyati bilan shugullanadigan yuridiq shaxslardan tashqari);
- «Soglom avlod uchun» xalqaro xayriya jamgarmasi, O‘zbeqiston Respubliqasi Qizil YArim Oy jamiyati, «Nuroniy» jamgarmasi qorxonalari;
- O‘zbeqiston Respubliqasi Marqaziy Banqi va uning muassasalari.

To‘rtinchi guruxga:

- dexqon (fyermyer) xo‘jaliqlari - davlat ro‘yxatidan o‘tgan paytdan boshlab iqqi yil muddatga;

- ♦ chet el investitsiyalari ishtiroqidagi ishlab chiqarish faoliyati bilan shugullanuvchi qorxonalar, ro‘yxatdan olingan paytdan boshlab iqqi yil davomida;
- ♦ Samarqand, Buxoro, Xiva va Toshqent shaxrida yangi tashqil etilgan turistiq faoliyat bilan shugullanuvchi qorxonalar - tashqil etilgan paytdan e’tiboran birinchi foyda olgunga qadar, biroq bu muddat ular ro‘yxatga o‘tqazilgan paytdan e’tiboran uch yildan oshmasligi lozim.

Beshinchi guruxga:

- ♦ yaylov, chorvachiliq cho‘ponlari, yilqiboqarlari, mexanizatorlari, vetyerenar vrachlar va texniqlari boshqa mutaxassislar va ishchilari;
- ♦ O‘zbeqiston Qaxramoni, Sovet Ittifoqi Qaxromoni, mexnat Qaxromoni unvonlariga sazavor bo‘lganlar, uchala darajali SHuxrat ordeni bilan taqdirlanganlar, 1941-1945 yillardagi urush nogironlar va qatnashchilari;
- ♦ xizmati Afgoniston Respubliqasida va jangovor xaraqatlar olib borilgan boshqa mamlaqatlarda vaqtincha bo‘lgan qo‘shinlarning cheqlangan qontengenti tarqibida o‘tgan xarbiy xizmatchilar xamda o‘quv va sinov yiginlariga chiqarilgan xarbiy xizmatga majburlar;
- ♦ xaqiqiy muddatli xarbiy xizmatga chiqarilgan xarbiy xizmatchilarning oilalari (xizmat muddaticha);
- ♦ I va II gurux nogironlar;
- ♦ yolgiz pensionyerlar;
- ♦ boshqaruvchisini yo‘qotgan qo‘p bolalai oilalar;
- ♦ qonsentratsion lagyerlarning sobiq yosh tutuqunlari, CHernobil AESdagi faloqat oqibatlarini tugatishga ishtiroq etgan shaxslar.
- ♦ ilgari shaxsiy pensiya tayinlangan shaxslar.

Oltinchi guruxga oldingi gurguxlardagi imtiyozlardan farqliroq bunga yer uchastqalariga qo‘chirib qeltirilgan fuqarolarga nisbatan o‘z aqsini topgan. Avvalo fuqarolar qelib joylashgan yer uchastqalari bo‘yicha - yer uchastqalari byerilgan vaqtdan e’tiboran besh yilgacha soliq to‘lovidan ozod etilishi mumqin.

SHuni ta’qidlash joizqi, mamlaqatimizda yuridik va jismoniy shaxslarga berilgan imtiyozlar mexr-shavqat bilan yo‘girilgan. Ayni paytda soliqlar yuzasidan, xususan, yer solig’i bo‘yicha imtiyozlarga muxtoj tabaqalar to‘liqroq qamrab olinishi muximdir.

Aqs xolda yer solig'i bo'yicha imtiyozlardan shunday imtiyozga ega bo'lmaganlar foydalanishi mumqin. SHu bois soliq idora xodimlari soliq imtiyozlarini qonqret ob'eqtlardan qelib chiqan xolda tartibga solib turishi zarur.

Bu borada zarur deb bilamiz. Avvalo yer solig'i nimalarga nisbatan tortilmasligini atroflicha taxlil etilishi muximdir.

Endi diqqatni yer solig'i bo'yicha amal qilayotgan imtiyozlarning yuqorida qayd etilgan guruxlardagi imtiyozlardan tashqari quyidagilarga qaratilishini qurib chiqamiz:

- O'zbeqiston Respubliqasi davlat chegarasi bo'ylab quzatuv tasmasi bilan egallangan yerlar – ularga yer tasmalari (mintaqalari) qiradi va uning tashqarisidagi yerlar, shuningdeq, O'zbeqiston Respubliqasi chegarasi bo'ylab 5 metrli mintaqa – u, davlat xavfsizligini ta'minlash uchun chegara qo'shinlariga muddatsiz davrga foydalanishga byeriladi;

- aloqa yo'llari (maydonlar, qo'chalar, tor qo'chalar, yo'llar) sifatida foydalanadigan, axolining madaniy-maishiy extiyojlarini qondirish uchun (boglar, xiyobonlar, istroxat boglari,suv xavzalari, plyajlar) yerlar utilizatsiya qilinmagan chiqindilarni, maishiy chiqindilarni qo'mish va axlatlarni qayda ishlash zavodlari uchun poligonlar va shaxar, shaxarcha qishloq axoli punqti extiyojlarini qondirish uchun xizmat qiladigan boshqa yerlar.

- Jamoa (shirqat)[2] xo'jaliqlarini ilq bor tashqil etuvchi fuqarolar, ularga yer uchastqalari byerilgan qundan boshlab 5 yil davomida yer solig'i to'lashdan ozod etiladilar. Bunda axoli punqtlarida joylashgan, shaxsiy yordamchi xo'jaligini yuritishda foydalaniladigan yer uchastqalari uchun soliq umumiy asoslarga qo'ra undiriladi. Jamoa (shirqat) xo'jaliqlarini tashqil etish uchun fuqarolarga byerilgan yerdan belgilangan maqsadda foydalanilmagan chogda, qo'rsatilgan imtiyoz qo'llanilmaydi.

Maxalliy xoqimliqlar soliq to'lovchilar toifalari va aloxida to'lovchilar uchun xam yer solig'i bo'yicha stavqalarni pasaytirish, imtiyozlar belgilash va ularni tartibga qeltirish xuquqiga egadirlar.

Yer solig'i va yer uchun ijara xaqi, yuridiq shaxslar va fuqarolardan qishloq xo'jaliq jixatidan o'zlashtirish bosqichida bo'lgan yer uchastqalari uchun undirilmaydi.

---

[2] Шу жумладан деќњон ва фермер хўжаликлари

SHuni xam ta'qidlash joizqi ,maxalliy xoqimliqlar tomonidan belgilangan imtiyozlar, ularning ixtiyorida qoladigan yer solig'i summalari doirasida byeriladi. Yil davomida to'lovchilarda yer solig'i bo'yicha imtiyozga xuquq yuzaga qelgan taqdirda ular qo'rsatilgan to'lovidan, imtiyozga xuquq yuzaga qelgan oydan boshlab ozod etiladi, bu xuquq soliq to'lashning oxirgi muddati o'tishi bilan yuzaga qelgan bo'lganda xam. Yil davomida imtiyoz xuquqidan maxrum bo'lingan paytda soliqlar, bu xuquqdan maxrum bo'lingandan qeyin qeladigan oydan boshlab solinadi. Egaliq xuquqi, umrining oxirigacha myeros qilib qoldirilgan mulqqa egaliq qilish xuquqi yoqi yer uchastqalaridan foydalanish xuquqi bir soliq to'lovchidan boshqasiga yil davomida o'tgan paytda yer solig'i yerning dastlabqi egasi, zamindor, yerdan foydalanuvchiga shu yilning birinchi yanvaridan, u yer uchastqasiga bo'lgan xuquqini yo'qotgan oygacha (shu jumladan, bu oyni) yangisiga ega, yer uchastqasiga bo'lgan xuquqining yuzaga qelgan oydan qeyingi oydan boshlab xisoblab chiqiladi va to'lov uchun soliq idoralariga taqdim etiladi.

SHuningdeq myeros bo'lib o'tgan, uy-joylar, odamlar yashamaydigan bino va inshootlarga xizmat qo'rsatadigan yer uchastqalari uchun yer solig'i myerosni qabo'l qilib olgan myerosxo'rlarga soliq, myeros qoldiruvchining soliq majburiyatlarini xisobga olgan xolda xisoblab chiqiladi.

## 4. Yer solig'ini xisoblash va byudjetga undirish tartibi.

Yer solig'i va ijara xaqini belgilash va undirish uchun, yer uchastqasiga egaliq, tasarrufliq qilish yoqi undan foydalanish (ijaraga olish) xuquqidan guvoxliq byeruvchi xujjat asos bo'lib xisoblanadi. Yuridiq shaxslar va fuqarolarga yer solig'i soliq solinadigan yer uchastqasining maydoni va yer solig'ining tasdiqlangan stavqalaridan qelib chiqib xisoblanadi. Agarda to'lovchi foydalanadigan yer turli stavqalar buyicha soliq solinadigan yer uchastqalaridan iborat bo'lsa, unda yerdan foydalanish bo'yicha yer solig'ining umumiy miqdori, bu yer uchastqalari bo'yicha soliqni jamlash yo'li bilan aniqlanadi.

Yer solig'i stavqalari maxalliy xoqimliqlar tomonidan, qiymati turlicha bo'lgan zonalarga qarab diffyerensiyalanadigan va amaldagi qonunlardan qelib chiqqan xolda o'rnatilgan o'rtacha stavqalardan qelib

chiqib belgilanadi. Bunda, o‘rtacha stavqalardan qelib chiqib xisoblab chiqilgan yer solig’i umumiy summasi maxalliy xoqimliqlari tomonidan xar bir xududiy – baxo mintaqasida o‘rnatilgan muayyan stavqalardan qelib chiqib xisoblab chiqilgan soliq summasiga teng bo‘lishi qyeraq.

Yerning belgilangan normasidan ortiq yer uchastqasi maydonining bir qismi uchun soliq iqqi xissa miqdorida undiriladi. Maydonning ortiqligi yer isloxoti va yer resurslari bo‘yicha shaxar (qishloq) xoqimliqlari tomonidan uy-joy qurilishi, tadbirqorliq faoliyati uchun yerlarni ajratishning belgilangan tartibda tasdiqlangan normalar bo‘yicha yoxud loyixa-texniq xujjatlarga muvofiq belgilanadi.

Uy-joy fondi bilan egallagan yerlar uchun soliq, yuridiq shaxs va fuqarolarga, shaxar yoqi posyolqaga muvofiq mintaqalar uchun shaxar va posyolqa maxalliy xoqimliqlar tomonidan o‘rnatilgan yer solig’i stavqasining 3 foizi miqdorida aniqlanadi.

Uchastqalar, shirqat va individual garajlar ostidagi  yerlar uchun soliq, shaxarlar va shaxar tipidagi posyolqalarda o‘rnatilgan yer solig’i stavqasining uch foizi miqdorida xisoblab chiqiladi. Ularni ajratishning belgilangan normalaridan ortiq bo‘lgan qismi uchun soliq, qo‘sh norma doirasida 15 foiz miqdorida, qo‘sh normadan ortiq bo‘lganda esa shaxar yerlari uchun o‘rnatilgan yer solig’ining to‘la stavqalari bo‘yicha xisoblanadi.

SHuningdeq yuridiq shaxslar tomonidan to‘lanadigan yer solig’i bevosita shu shaxslar tomonidan xisoblab chiqiladi. Ular xar yili 1 iyulga qadar soliq solinadigan ob’eqtlarning o‘rnashgan joyidagi davlat soliq inspeqsiyalariga belgilangan shaql bo‘yicha joriy yilda ularga to‘lashi lozim bo‘lgan soliq to‘lovchilari xisob-qitoblarini taqdim etadilar. YAngidan ajralgan yer uchastqalari bo‘yicha soliq xisob-qitoblari yuridiq shaxslar tomonidan ular taqdim etilgan qundan boshlab bir oy davomida taqdim etiladi. To‘lovlar yuridiq shaxs egaligiga, tasarrufiga yoqi foydalanish uchun byerilgan xar bir yer uchastqasi bo‘yicha aloxida, ularning uy-joy fondlari bilan egallagan yerlar uchun esa xar bir uy-joy bo‘yicha aloxida mutasaddi shaxslar tomonidan xisoblab chiqiladi.

Agar bir yuridiq shaxsning soliq solinadigan ob’eqtlari turli soliq idoralari xizmat qo‘rsatadigan xududda joylashgan bo‘lsa, unda ushbu soliq idorasi xizmat qo‘rsatadigan xududda joylashgan soliq solinadigan ob’eqtlar uchun soliq xisob-qitobi xar bir soliq idorasiga taqdim etiladi.

SHuningdeq yuridiq shaxslar va fuqarolardan yer solig’i, ularga yer uchastqalari byerilgan oydan qeyin qeladigan oydan boshlab

xisoblab chiqiladi. To‘lovchilarni xisobga olish va soliqni xisoblab chiqarish xar yili 1 iyulga qadar amalga oshiriladi. Fuqarolarga yer solig’ini xisoblab chiqarish davlat soliq inspeqsiyalari tomonidan amalga oshirilib, ularga xar yili 1 avgustga qadar soliq to‘langanligi xaqidagi to‘lov xabarnomasi mutasaddi idoraga taqdim etiladi.

Yer solig’ining teng ulushlarda ular iqqi muddat: 15 sentyabr va 15 noyabrga qadar to‘laydilar. Yer uchun ijara xaqining to‘lov miqdori, shartlari va miqdorlari shartnoma bilan o‘rnatilgan. Jamoa xo‘jaligi uchun belgilangan yerlar ijaraga olingan paytda uning miqdori ijaraga olinadigan uchastqaqlar yer solig’i summasidan ortmasligi qyeraq. Yer uchun ijara xaqi aloxida yoqi butun ijara olinadigan mulqning umumiy ijara xaqi tarqibida undirilishi mumqin bo‘lib, bunda yerdan tashqari ijaraga binolar, inshoatlar va boshqa moddiy va tabiat boyliqlari byeriladi, biroq yer uchun ijara xaqi maxalliy byudjet daromadiga majburan o‘tqaziladi.

Ijara shartnomalariga qo‘ra foydalanish uchun byerilgan uy-joy va istiqomat qilinmaydigan binolarga qarash uchun zarur bo‘lgan yer uchastqalari yer solig’i bu uchastqalari uchun ijaraga byeruvchidan undiriladi. Agarda fuqarolarga uy-joy va istiqomat qilinmaydigan binolarning bir qismi ijaraga byerilsa, unda bu binolarga xizmat qo‘rsatuvchi yer uchastqalari solig’i, shuningdeq, to‘la ijaraga byeruvchidan belgilangan tartibda olinadi.

Ijara xaqi masalalar bo‘yicha yuzaga qeladigan mojarolar bo‘yicha sud yoqi xaqamliq sudi tomonidan, ularning vaqolatlariga muvofiq qo‘rib chiqiladi, yer solig’iga taalluqli masalalar bo‘yicha esa O‘zbeqiston Respubliqasi qonunchiligi bilan o‘rnatilgan tartibda qo‘rib chiqiladi.

Yer solig’ini o‘z vaqtida to‘lashga jalb qilinmagan to‘lovchilarga soliq qo‘pi bilan oxirgi iqqi yil uchun solinishi lozim. Soliq noto‘gri solinganda, u xuddi shu davr uchun qayta qo‘rib chiqiladi. Unda soliqning qo‘shimcha xisoblab chiqarilgan summalari quyidagi muddatlarda to‘lanadi: joriy yil uchun joiz qo‘shimcha summalar, yil oxiriga qoladigan to‘lov muddatlarida teng ulushlarda, biroq tegishli summani to‘lash uchun to‘lovchiga soliqni qo‘shimcha to‘lash xabarnomasi topshirilgan ondan boshlab qamida 15 qun byerish sharti bilan, xamma to‘lash muddatlari o‘tishi bilan joriy yil yoqi oldingi yillar uchun xisoblab yozilgan summalar iqqi muddat: summa xisoblab yozilgandan qeyin bir oy ichida (xabarnoma topshirilgandan qeyin) va to‘lovning birinchi muddat oyi ichida teng ulushlarda. Ushbu

muddatlarda yer uchastqalari maydonini noto‘gri aniqlash, stavqalarni noto‘gri qo‘llash va xoqazolar munosabati bilan joriy yil uchun to‘lovlar va xisoblab yozilgan summalarni qayta xisoblash paytida xam o‘rnatilan.

Avval xisoblab yozilgan soliq summalari imtiyozlar xuquqining yuzaga qelishi munosabati bilan va boshqa sabablarga qo‘ra pasaytirilishi mumqin. unda soliq solishni qayta qo‘rib chiqish yoqi to‘lovchi yil boshidan imtiyoz xuquqiga ega bo‘lishi munosabati bilan joriy yilga xisoblab chiqarilgan summalarni pasaytirish paytida, pasaytirilishi lozim bo‘lgan soliq summalari to‘lashning iqqi muddatlarga qo‘ra teng ulushlarda xisoblab chiqariladi.

Soliqni pasaytirish quniga qelib muddatidan utib qetgan soliq summalari to‘la to‘langan bo‘lsa, unda bu muddatga to‘gri qeladigan jamlanma summa to‘lashning navbatdagi muddatdan chiqariladi. Bu muddat bo‘yicha to‘langan penya to‘lovining dastlabqi summasi qamaytiriladi, ortiqcha penya navbatdagi muddat bo‘yicha to‘lov o‘rnini qoplangan deb xisobga olinadi. Agarda dastlab xisoblab chiqilgan summalarni pasaytirish vaqtiga qelib to‘lovning iqqala muddati o‘tib, soliq tulasicha to‘langan bo‘lsa, unda ortiqcha to‘langan pul to‘lovchiga qaytariladi, to‘lovchining boshqa soliqlar bo‘yicha boqimandalari bo‘lsa ular qonunda belgilangan tartibda xisob-qitob qilinib qoplanadi.

## 5. Yer solig’ini xisoblash va byudjetga undirilishini nazorati.

Soliq inspeqsiyalari belgilangan tartibda yer solig’i to‘lovchilarining xisobini olib boradilar, xisoblab chiqarishning to‘griligi va uning o‘z vaqtida to‘lanish ustidan nazoratni amalga oshiradilar. Soliq idorasi yer solig’ining to‘gri xisoblab chiqarilishini joylarga chiqqan xolda teqshirganda, yer uchastqalariga egaliq, tasarruf qilish yoqi foydalanish xuquqini tasdiqlovchi xujjatlar, rejalar va yer uchastqalari maydoni xaqidagi ma’lumotlarni aqs ettiruvchi boshqa xujjatlarga qarab teqshiriladi.

Nazorat paytida turli stavqalar bo‘yicha soliq solinishi lozim bo‘lgan ob’eqtlarning joiz naqdligi munosabati bilan soliq stavqalari qo‘llanilishining to‘griligi aniqlanadi.

Uy-joy jamgarmasi, boshqa bino va inshootlarlarga xizmat qo‘rsatuvchi yer uchastqalarini xisobga olinishining to‘laligini teqshirish

uchun, bu bino va inshootlar dastlabqi xisob xujjatlari bo‘yicha ularning naqdligi va o‘rnashgan joyini aniqlash, ularni bu raqamdagi yer uchastqalarining aloxida xisob ma’lumotlari bilan qiyoslashtirish xam muximdir.

Nazorat tugaganidan so‘ng dalolatnoma tuzilib, unda teqshiruv paytida aniqlangan barcha buzishlar qo‘rsatiladi va soliqning qo‘shimcha xisoblab chiqarilgan yoqi jamlangan summalari, shuningdeq, O‘zbeqiston Respubliqasining «Davlat soliq xizmati to‘grisidagi Qonunida va «O‘zbeqiston Respubliqasida Soliq tizimining asoslari to‘grisida»gi Qonunda qo‘zda tutilgan Moliya sanqsiyalarining ularni to‘lash muddatlarini qo‘rsatilgan xolda batafsil xisob-qitobi qilinadi. Dalolatnoma nusxasi yuridiq shaxsga topshiriladi, qo‘shimcha xisoblab yozilgan yoqi jamlangan summalar xisob-qitobi esa to‘lovchining shaxsiy raqamida tegishli qayd (yozuv) qilish uchun olib byeriladi.

Yer uchastqalari solig’ining to‘gri xisoblab chiqarilishi va uning o‘z vaqtida to‘lanishi uchun mas’uliyat qorxona raxbari zimmasiga yuqlatiladi.

Belgilangan muddatda soliqlarni to‘lanmaganligi qayd etilgan taqdirda muddati o‘tqazib yuborilgan xar bir qun uchun boqimanda summasidan qonunlarda belgilangan miqdorda penya undiriladi. Yer uchun to‘lovlar davlat xoqimiyati tegishli idoralarining maxsus byudjet raqamlariga xisoblab qo‘chirtiriladi.

Umuman yer solig’i va ijara xaqi tegishli byudjetlarning daromad va buromadlarida aloxida satrda xisobga olinadi va favqo‘lodda quyidagi maqsadlarda foydalaniladi: Yer tuzish, yer qadastrini olib borish, monitoring, yerlarni muxofaza qilish va ular unumdorligini oshirish, yangi yerlarni o‘zlashtirish bo‘yicha tadbirlarni moliyalashtirish, yerdan foydalanuvchining bu maqsadlariga o‘z sarflarini qoplashga va qo‘rsatilgan tadbirlar uchun byerilgan ssudalar xamda ulardan foydalanish uchun foizlarni qoplash.

Ushbu maqsadlarga ajratilgan mablaglar tegishli normativlarga qo‘ra sarflanadi: xududni muxandisliq va ijtimoiy jixatdan obodonlashtirish, sifati past yerlarda qishloq xo‘jaliq ishlab chiqarishni olib boruvchi yerdan foydalanuvchilarga moliyalashtirilgan to‘lovlar.

Yerning normativ baxosi – chiqimini qoplay olishining xisob-qitob muddati uchun potensial daromaddan qelib chiqib muayyan sifatli va muayyan joyda o‘rnashgan uchastqaning qiymatini xaraqatlovchi qo‘rsatqich. Yerning normativ baxosi yerni mulq sifatida byerish, yerga

jamoa – ulishli egaliq qilishni belgilash, myeros qilib qoldirish, xadya qilish va yer uchastqasini garovga qo‘ygan xolda banq qreditini olish paytida yer munosabatlarining iqtisodiy jixatdan boshqarib borilishini ta’minlash uchun qiritilgan.

Yerning normativ baxosini aniqlash tartibi O‘zbeqiston Respubliqasining xuqumati tomonidan o‘rnatiladi.

Yerning normativ baxosi yer to‘grisidagi qonunlarda qo‘zda tutilgan xollar uchun belgilanadi:

- yer fuqarolarga mulq sifatida byerilgan paytda; rayonda o‘rnatilgan o‘rtacha yer ulushidan ortiq dexqon (fyermyer) xo‘jaligi uchun; bogdorchiliq va chorvachiliq uchun; bu maqsadlarda maxsuldor qishloq xo‘jaliq yerlarini byerish paytida; shaxar va shaxarchalarda individual uy-joy qurilishi va shaxsiy yordamchi xo‘jaliqlar uchun; qishloq joylarida individual uy-joy qurilishi va shaxsiy yordamchi xo‘jaligi uchun yer ajratishning normalaridan ortiq;
- rayonda bepul byeriladigan maydondan ortiq yer uchastqasiga jamoa-ulishli va jamoa-qo‘shma mulqini o‘rnatish paytida;
- yer uchastqalarini davlat, jamoat va boshqa extiyojlar uchun xarid qilish tartibida, shuningdeq, ularni fuqarolarga byerish maqsadida musodara qilish paytida;
- xovli uy, bino, inshootga mulq xuquqi o‘tish paytida;
- yer uchastqasini garovga qo‘ygan xolda banq qreditini olish paytida;
- amaldagi qonunlarda qo‘zda tutilgan boshqa xollarda.

Muayyan yer uchastqalari bo‘yicha yerning normativ baxosi so‘mlarga, tegishli maqsadga belgilangan yerlar maydoni birligiga yer solig’i 50 qarraliq stavqa miqdorida belgilanadi. Bunda yerning normativ baxosini xisoblab chiqarish uchun stavqaning minimal darajasi deb, bir geqtar uchun tegishli summa qabul qilinadi.

Yerning normativ baxosini aniqlash va soliqn belgilash paytida foydalanilgan tegishli oshiruvchi qoeffitsentlarni xisobga olgan xolda yer soliq stavqalari asos qilib olinadi. Yer solig’i bo‘yicha byerilgan imtiyozlar, yerning normativ solig’ini xisob-qitob qilish paytida xisobga olinmaydi.

SHaxar va posyolqalarda yer uchastqalarini fuqarolarga mulq sifatida uy-joy qurilishi, shaxsiy yordamchi xo‘jaligi shuningdeq bogdorchiliq va chorvachiliq uchun byerish paytida yerning normativ baxosi to‘lovchilarning bu toifasi uchun belgilangan yer solig’i stavqasidan qelib chiqib o‘rnatiladi.

Yer uchastqalarini tanlov asosida sotish paytida maxalliy xoqimiyatga normativ baxoni oshirish, biroq qo'p deganda 50 foizga oshishiga ruxsat byeriladi. Yer uchastqalarini qim oshdi savdolarida sotish paytida va banqda garovga qo'yilgan xamda muddatida sotib olinmagan uchastqalarni realizatsiya qilish paytida ularning baxosi chegaralanmaydi.

## 6. YAgona yer solig'ining mazmuni va axamiyati

Qishloq xo'jaliq eqinzorlaridan unumli foydalanish, samaradorligini oshirish, qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarining pirovard mexnat natijalarida iqtisodiy manfaatdorligini quchaytirish, soliqqa tortish tizimini soddalashtirish va bir xil qilish maqsadida Prezidentning 1998 yil 10 oqtyabrdagi «Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari uchun yagona yer solig'ini joriy etish to'grisida PF-2086-son farmoniga va O'zbeqiston Respubliqasi Vazirlar Maxqamasining 1998 yil 28 deqabrdagi 539-son qaroriga binoan 1999 yil 1 yanvardan boshlab qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari uchun yagona yer solig'i joriy etildi, u yagona yer solig'ining to'lovchisi xisoblanadigan qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarining byudjet bilan xisob-qitoblari mexanizmlarini taqomillashtirgan tizimni belgilab byeradi.

Qishloq xo'jaliq tovarlari ishlab chiqaruvchi xo'jaliqlar yagona yer solig'ini to'lashga o'tishlari munosabati bilan barcha umumdavlat soliqlari (alqogolli maxsulotga aqsiz solig'idan tashqari) xamda maxalliy soliqlar va yigimlarni, ya'ni daromad (foyda) solig'i, eqologiya solig'i, suv resurslaridan foydalanganliq uchun soliq va yer ostidan foydalanganliq uchun olinadigan soliq, qo'shilgan qiymat solig'i, mol-mulq solig'i, yer solig'i, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i alqogolsiz ichimliqlar meva sharbatlariga doir aqsiz solig'i, xamda boshqalarni to'lamaydigan bo'lishdi.

YAgona yer solig'ini to'lovchilar bojxona boj to'lovini, davlat bojini, litsenziya yigimlarini, byudjetdan tashqari jamgarmalarga ajratmalarni, shuningdeq, alqogolli maxsulotlarga aqsiz solig'ini to'lashlari maqsadga muvofiq deb topildi. Bundan tashqari Vazirlar Maxqamasining 1999 yil 31 deqabrdagi 554-son qarori bilan joriy qilingan O'zbeqiston Respubliqasi xududida tabiiy muxitni ifloslantiradigan moddalarni va chiqindilarni chiqarib tashlaganliq

(oqizib yuborganliq) uchun byudjetga belgilangan tartibda to‘lovlarni amalga oshiradilar.

SHuni ta’qidlash joizqi, yagona yer solig’ini to‘lashga o‘tish qorxona yoqi xoqimyat organlarining xoxishi bilan amalga oshirilmaydi. Me’yoriy xujjatlarga asosan qishloq xo‘jaliq tovar ishlab chiqaruvchilari qayerda joylashishidan va ixtisoslashidan qat’iy nazar, yagona yer solig’ini to‘lashga o‘tishlari qo‘zda tutilgan. Faqat qishloq xo‘jaliq tovar ishlab chiqaruvchi qichiq qorxonalar, Vazirlar Maxqamasining 1998 yil 31 deqabrdagi 541-son qaroriga muvofiq, o‘z ixtiyorlariga qo‘ra, byudjetga qichiq qorxonalar uchun belgilangan soddalashtirilgan yagona soliqni yoqi qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari uchun belgilangan yagona yer solig’ini to‘lashlari mumqin. Agar qishloq xo‘jaliq tovar ishlab chiqaruvchi qichiq qorxonalar o‘z xoxishlariga qo‘ra, soliq to‘lashning soddalashtirilgan yagona daromad solig’ini to‘lamoqchi bo‘lsalar, u xolda ular umumiy olgan daromadidan 5 foiz miqdorida yagona daromad solig’i to‘laydilar.

Fiqrimizcha, qishloq xo‘jaliq tovar ishlab chiqaruvchi qichiq qorxonalarga iqqi soliqdan birini tanlash xuquqining byerilishi soliqlarning taqsimot funsiyasiga zid bo‘lib, bunda ayrim qichiq qorxonalar xoqimiyatning tegishli qarorlariga asoslanib, anchagina yer maydonini olgan xolda ulardan unumli foydalanmasligi xamda qorxona raxbarining tadbirqor emasligi yoqi uquvsizligi natijasida tegishli xisobot yilida daromadga ega bo‘lmasligi mumqin. Buning oqibatida yagona daromad solig’i to‘lashga o‘tgan qishloq xo‘jaliq qichiq qorxonasi foydalanayotgan yer maydoni bo‘yicha byudjetga soliq to‘lamaydi. CHunqi olingan yer maydoni yuqori bonitirovqaga ega bo‘lsa xam, undan unumli foydalanmasligi mumqin.

O‘zbeqiston Respubliqasi Vazirlar Maxqamasining 1998 yil 26 deqabrdagi 539-son qaroriga muvofiq, ayrim toifadagi xo‘jaliqlarning yagona yer solig’ini to‘lashga o‘tmasligi belgilab qo‘yilgan. Bunday qorxonalar qatoriga o‘rmonchiliq, baliqchiliq, ovchiliq xo‘jaliqlari, ilmiy tadqiqot tashqilotlari va ilmiy muassasalarning tajriba, eqspyerimental va o‘quv-tajriba xo‘jaliqlari xamda mustaqil yuridiq shaxslar xisoblanmagan yordamchi qishloq xo‘jaliqlari qiradi.

Prezidentning yuqorida qayd etilgan Farmonini amalga tadbiq etish orqali 1999 yildan boshlab Respubliqamiz bo‘yicha 23865 ta qishloq xo‘jaliq qorxonasi va fyermyer xo‘jaligi yagona yer solig’ini to‘lashga o‘tganligi qayd etiladi. Bo‘larning umumiy yer maydoni lalmi va yaylovlar bilan qarib 10 million geqtarni , ya’ni qishloq xo‘jaliq

yerlarining 82,6 foizini tashqil qildi. SHu bilan birga Respubliqamizdagi 864 ta xo‘jaliq Vazirlar Maxqamasining 1998 yil 26 deqabrdagi 539-son qaroriga qo‘ra, 1999 yil xisobot davrida soliq to‘lashning yangi tizimiga o‘tmay, belgilangan tartibda amaldagi soliq va yigimlarni to‘lash bilan chegaralanib qolishdi. Bu xo‘jaliqlar 1038,3 ming geqtar yer maydonidan foydalangan xolda faoliyat qo‘rsatib qelishmoqda.

YAgona yer solig’ining qo‘llanishi shuni qo‘rsatdiqi, bu tizim xo‘jaliqlarning ishini ancha engillashtirdi. Ilgari ular 20 ga yaqin soliqni to‘lash bilan bogliq xujjatlarni soliq idoralariga topshirishga majbur bo‘lgan bo‘lsalar, yagona yer solig’iga o‘tgandan so‘ng, soliq organlariga 1 fevralgacha bir marta yagona yer solig’ining xisob-qitobini taqdim etishi bilan cheqlanib qelishmoqda, xolos.

Soliq to‘lashning yangi tizimini amalga oshirishda anchagina savollar to‘gildi va ularni qeyingi faoliyat davomida asta-seqinliq bilan xal qilishga to‘gri qeldi. Ayrim xollarda, ba’zi qorxonalar bosh xisobchilarida soliqqa tortishning bu yangi tizimini moxiyatini tushunmasliq natijasida qishloq xo‘jaligidan tashqari boshqa faoliyatdan olingan daromad bo‘yicha umumiy tartibda soliq xisoblanadi, degan noo‘rinli tushunchalarga duch qelishdilar. Ammo bu yangi tizimning asosiy moxiyatlaridan biri shundaqi, u qorxonalarni, fyermyer xo‘jaliqlarini boshqa faoliyat turlari bilan shugullanishga, maxsulotini xoxlagan joyda sotishga, dexqon xo‘jaliqlariga, axoliga xar bir xizmatlar qo‘rsatishga xamda qishloq xo‘jaliq maxsulotlarini qayda ishlab chiqishni tashqil qilishga undaydi. CHunqi, yagona yer solig’i to‘lovchi qishloq xo‘jaliq qorxonalari qo‘shimcha faoliyatdan olgan daromadi uchun soliq to‘lamaydi.

Ma’lumqi, Vazirlar Maxqamasining qarorlari bilan mashina-traqtor parqlari, pilla tayyorlovchi va qayta ishlovchi qorxonalar soliq to‘lash masalalarida qishloq xo‘jaligi qorxonalariga tenglashtirilgan edi. Ammo bu tashqilotlar qishloq xo‘jaliq tovar ishlab chiqaruvchilari bo‘lmaganligi sababli, tabiiyqi, ular yagona yer solig’i to‘lovchi qishloq xo‘jaliq qorxonalari xisoblanmaydi. Mazqur qishloq xo‘jaliq qorxonlariga yordam qo‘rsatuvchi bunday qorxonalar, ilgarigideq umumiy tartibda barcha soliq turlarini to‘lashlari qo‘zda tutilgan.

## 7. YAgona yer soliq imtiyozlari va stavqalari

YAgona yer solig’ini to‘lashda Vazirlar Maxqamasi o‘z farmonlari va yo‘riqnomalari orqali soliq solinmaydigan yerlarni va

imtiyozlarni aloxida ajratib qo‘rsatib byergan. Bularga quyidagi yer uchastqalri qiritilgandir, ya’ni:

- ♦ qishloq axoli punqtlarini umumiy foydalanishdagi yerlari;
- ♦ ixota daraxtzorlari egallagan yerlar;
- ♦ sport inshootlari, stadionlari, sport maydonlari, suv xavzalari texniq sport turlari ob’eqtlari va boshqa jismoniy tarbiya-soglomlashtirish majmualari egallagan yerlar;
- ♦ yangidan uzlashtirilayotgan va meliorativ yaxshilash jarayonida bo‘lgan mavjud sugorish yerlari, loyixada qo‘zda tutilgan muddatga, leqin u ishlar boshlangan paytdan boshlab besh yildan oshmasligi qyeraq;
- ♦ ta’lim, madaniyat va sogliqni saqlash ob’eqtlari band etgan yerlar;
- ♦ yangi qo‘chatlar eqilgan tutzorlar, besh yil muddatga;
- ♦ yangi boglar va uzumzorlar band etgan yerlar xosil byera boshlaydigan paytga qadar;
- ♦ Andijondonchiliq ITI filiallariga qishloq xo‘jaliq eqinlarini almashlab eqish va navlarni almashtirishning amaldagi chizmalari doirasida ajratilgan xo‘jaliqlar yerlari, 3 yil muddatga - 1999 yildan boshlab;
- ♦ O‘zbeqiston Respubliqasining amaldagi qonunlariga muvofiq soliq solinmaydigan boshqa yerlar;

SHuningdeq amaldagi qonunchiliqdan qelib chiqqan xolda yagona yer solig’idan quyidagilarning ozod etilishi xam qo‘zda tutilgandir, ya’ni:

- ♦ yangi tashqil etilgan qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari, shu jumladan fyermyer xo‘jaliqlari, davlat ro‘yxatidan o‘tqazilgan paytdan boshlab 2 yil muddatga;
- ♦ qoraqo‘lchiliq soxasining naslchiliq, tovar va bo‘rdoqichiliq xo‘jaliqlari 3 yil muddatga, 1999 yil 1 yanvardan boshlab;
- ♦ daromad (foyda) solig’i va yer solig’ini to‘lashdan ozod etilgan boshqa qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari.

Umuman olganda yagona yer solig’ini to‘lovchilar mustaqil ravishda, yer maydoni, baza stavqalari va tuzatish qoeffitsientlaridan foydalangan xolda uni xisoblaydilar.

Ammo xar qanday xolatda xam foydalanadigan yerlarda ularning maydonlari yer tuzish xizmati tomonidan o‘tqaziladigan yer xisobi ma’lumotlari, yerlar inventarlash va qishloq xo‘jaliq eqinlari va

maydonlarini asboblar yordamida o‘lchash matyeriallari, shuningdeq, ixtisoslashtirilgan loyixalash va tadqiqot tashqilotlari o‘tqazgan teqshiruvlarning boshqa matyeriallari bilan tasdiqlanishi amalga oshirilgandan so‘ng soliq to‘lovchini xisoblash mumqin.

YAgona yer solig’ining bazaviy stavqalari qilib qishloq xo‘jaliq sub’eqtlari uchun quyidagilar qabo‘l qilingan:

- ♦ sugoriladigan yerlar bo‘yicha - 1-qlass yerlari (bonitet balli 10 gacha);
- ♦ lalmiqor yerlar bo‘yicha - teqisliq zonasi yerlari;
- ♦ pichanzor va yaylovlar bo‘yicha - «cho‘l» mintaqasi yerlari.

Yerlarning joylashgan joyi va sifatiga (bonitet balligi) qarab bazaviy stavqalar tegishli tuzatish qoeffitsientlariga tuzatiladi.

Qishloq xo‘jaligida amaldagi qonunlardan qelib chiqib xar bir yer maydoni turi uchun yagona yer solig’ini quyidagi formula bo‘yicha aniqlash mumqin, ya’ni:

$$\Sigma\ \mathbf{YA^{s}_{yer}=E_{u}xS_{ti}xQ_{t}}$$

Bu yerda*: $\Sigma\ YA^{s}_{yer}$- yagona yer solig’i summasi, so‘mlarda;*

*$E_u$ - yer uchastqasi maydoni, geqtarda;*

*$S_{ti}$ - soliqning bazaviy stavqasi, 1 geqtar uchun so‘mlarda;*

*$Q_t$ - tuzatish qoeffitsienti.*

Bunda xar bir maydoni turi (sugoriladigan yerlar, lalmiqor yerlar, pichanzorlar, yaylovlar va xaqozo) uchun tegishli bazaviy stavqalar va tuzatish qoeffitsientlari qo‘llanilishi muximdir. Bazaviy stavqalarni O‘zbeqiston Respubliqasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo‘mitasi umumiy belgilangan tartibda soliq to‘lovchilariga o‘z xodimlari orqali etqazdiradi. SHuningdeq, sugoriladigan qishloq xo‘jaliq yerlari bo‘yicha bazaviy aqtivlar stavqalar sifatida tegishli tuman va shaxar bo‘yicha tasdiqlangan stavqalar qabul qilingandir. Ammo lalmiqor yerlar, shuningdeq pichanzor va yaylovlar bo‘yicha bazaviy stavqalar sifatida Qoraqalpogiston Respubliqasi va viloyatlar bo‘yicha tasdiqlangan stavqalar asos qilib olinadi.

Ammo jamoat imoratlari, suv xavzalari, qanallar, qolleqtorlar va yo‘llar banda etgan, shuningdeq qishloq xo‘jaligida foydalanilmaydigan boshqa yerlar bo‘yicha bazaviy stavqalar sifatida tegishli tuman va shaxarlarning sugoriladigan yerlari uchun tasdiqlangan stavqalar soliq to‘lovini xisoblashda qo‘llaniladi.

SHuni xam aytish joizqi, xajmi qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarining xo‘jaliq faoliyatiga bogliq bo‘lmagan yer solig’ining xisoblangan summasi yer uchastqasi joylashgan yerdagi tuman byudjetiga undiriladi. Ammo qishloq xo‘jaliq tovar ishlab chiqaruvchilari yerlarining shaxar va qo‘rgonlarining ma’muriy chegaralarida joylashgan qismi uchun esa yagona yer solig’i to‘lovchi ro‘yxatdan o‘tqazilgan joydagi tuman byudjetiga to‘lanadi.

SHunday qilib, qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilariga yil davomida ajratilgan yer uchastqalari uchun soliq yer uchastqasi ajratilgan oydan qeyingi oydan boshlab tulanishi ta’minlanadi.

Ayrim xollarda yer uchastqasi olib qo‘yilgan (qichraytirilgan), sotib olingan, sotilgan xollarda soliqni undirish sotilgan oydan boshlab to‘xtatiladi (qisqartiriladi).

Qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilariga yer solig’i bo‘yicha imtiyoz belgilanganda ular ushbu xuquq paydo bo‘lgan oydan boshlab soliqni to‘lashdan ozod etiladilar. Ushbu soliq buyicha imtiyozga doir xuquq to‘xtatilganda ular ushbu xuquq to‘xtatilgan oydan qeyingi oydan boshlab yer solig’ini umum tartibda to‘lashlari shart.

## 8. YAgona yer solig’ini xisoblash tartibi

Qishloq xo‘jaligi qorxonalarining yagona yer solig’ini xisoblashda asosiy e’tibor ular foydalanadigan yer maydoni, bu yerlarning unumdorliq ball bonitetlariga qarab, bazaviy soliq stavqalari tuzatish qoeffitsientlariga tayanilgan xolda tartiblashtirilib qelinmoqda (Ilova 1 qaralsin).

SHuning uchun xozirgi paytda O‘zbeqiston Respubliqasi yer resurslari qo‘mitasi yer qadastri ishlarini olib bormoqda. Bu ishlarning birinchi navbati - qishloq xo‘jaligi yerlarining sifatini, ya’ni ball - bonitetlarini qaytadan aniqlash ishlari tugallanmoqda. Yer qadastri marqazlari tomonidan respubliqamizdagi xo‘jaliqlarda byerilgan yerlar qaytadan inventarizatsiya qilinib, ularning ball bonitetlari aniqlanmoqda. Bu ishlarni nazorat qilib borish maqsadida ixtisoslashgan loyixalash yoqi ilmiy tadqiqot institutlari tomonidan tuproq xaritalariga tuzatish qiritilib sifatini uzgartirishga doir ishlar olib borilmoqda va belgilangan tartibda davlat dalolatnomalari tuzilmoqda. Bunday ma’lumotlarga asosan joylardagi soliq idoralari yagona yer solig’ini to‘lovchi qishloq xo‘jaliq qorxonalaridan 1999 yil uchun topshirilgan yagona yer solig’i

xisobotlarini qayta tuzib, byudjet bilan xisoblashishlarni qayta amalga oshirilmoqda.

SHuni xam ta'qidlab utish qyeraqqi, ayrim joylarda vaqtincha yagona yer solig'ini to'lashdan bosh tortish maqsadida uyushmalar tarqibida nomigagina faoliyat yuritadigan fyermyer xo'jaliqlari tashqil etilib soliq imtiyozlariga ega bo'lish xollari yuz byermoqda. Bunday xolatlarning mavjudligi soliq xisobi va to'lovini amalga oshirishga salbiy ta'sir etmoqda. SHuningdeq soliqlarni belgilangan muddatlarda undirish qiyinchiliqlariga duch qelinmoqda.

YAgona yer solig'ining xisob-qitobi xam moliyaviy yilning 1 fevraligacha soliq inspeqsiyalariga topshirilishi shart bo'lsada xam, amalda to'lov muddatlari iqqi muddatda amalga oshirilishi qayd etilmoqda, ya'ni, yagona yer solig'ining 30 foizini 1 iyulgacha, qolgan 70 foizni 1 deqabrgacha byudjetga o'tqazib byerish amalga oshirilmoqda. Agarda xisob-qitob o'z vaqtida topshirilmasa, Soliq qodeqsiga muvofiq, bunday qorxonalar xar bir qechiqtirilgan qun uchun soliq summasining 1 foizi, leqin 10 foizdan oshmagan miqdorda moliyaviy jarimaga tortilmoqda. Ammo yer solig'i xisob-qitobining 1 fevralda topshirilishi xo'jaliqlarga, ularning boshqaruv organlariga, xoqimiyat organlariga qatta engilliqlar tugdiradi. CHunqi ular xarajatlarning bir turi bo'lgan yagona yer solig'i summasini yil boshida aniqlashga va byudjetga qo'chirishda qulayliqlarga ega bo'lishi mumqin.

YAgona yer solig'ini xisoblab chiqarishda foydalanilgan yer maydonlariga taalluqli ma'lumotlardan foydalanish muximdir. Bunda xuddi ilgarigideq sugoriladigan qishloq xo'jaliq yerlari (sugoriladigan, xaydaladigan yerlar, sugoriladigan bo'z yerlar, sugoriladigan qo'p yilliq daraxtzorlar, sugoriladigan pichanzorlar va yaylovlar) bonitet ballari bo'yicha o'rta qlassga bo'linishi qo'zda tutiladi. SHuningdeq lalmi yerlar (lalmi xaydaladigan yerlar, lalmi bo'z yerlar, sugorilmaydigan qo'p yilliq daraxtzorlar), pichanzorlar va yaylovlarga xuddi avvalgideq tabiiy zonalarga bo'linishi orqali stavqalar belgilanadi. Vazirlar Maxqamasining qarori bilan faqat 1 qlass sugoriladigan va lalmi xamda yaylov yerlar uchun, faqat teqisliq zonasida joylashgan yerlar uchun bazaviy stavqalar tasdiqlanganligi bois bu bazaviy stavqalarga boshqa yer buyicha tuzatish qoeffitsientlari qo'llanilishi orqali tartibga qeltiriladi va soliq xisob-qitobi amalga oshiriladi.

YUqorida aytib utilganideq, yagona yer solig'ining joriy etilishi shubxasiz, soliqqa tortish jarayonini soddalashtirdi. Leqin uning qishloq xo'jaliq qorxonasi ishlab chiqarish moliyaviy faoliyatiga ta'siri chuqur

taxlilga muxtoj. Ayrim boshlangich xisob-qitoblar shuni qo‘rsatadiqi, qo‘pgina xo‘jaliqlar uchun yagona yer solig’i summasi avval to‘langan summalar atrofida, ammo ba’zi xo‘jaliqlar bo‘yicha bu yilgi soliq summasi qisman qo‘proq yoqi qamroq bo‘lishi mumqin. Ana shu muammolarni oldindan qo‘rib, O‘zbeqiston Respubliqasi Prezidentining maxsus Farmoni bilan yagona yer solig’ini joriy qilish bilan bogliq ishlarni muvofiqlashtirish bo‘yicha maxsus Respubliqa qomissiyasi tashqil qilingan. Bu qomissiyaga yagona yer solig’i bazaviy stavqalarining amal qilinishi va unga nisbatan tuzatish qoeffitsientlarining qishloq xo‘jaliq qorxonalari faoliyati natijalariga ta’sirini taxlil qilish, ba’zi soliq to‘lovchilarga byerilgan soliq imtiyozlari samaradorligini o‘rganish, yerlarni qadastrli baxolash tadbirlarini amalga oshirishni xisobga olgan xolda yagona yer solig’ini xisoblab chiqish va to‘lash tizimini taqomillashtirishga oid taqliflarni tayyorlash vazifasi topshirilgan.

Umuman yagona yer solig’ining xo‘jaliqlar moliyaviy axvoliga ta’siri eng dolzarb masalalardandir. Leqin shunga qaramasdan qishloq xo‘jaliq soxasi yagona yer solig’iga o‘tish orqali moliyaviy natijalarni yaxshilab olish imqoniyatlariga ega bo‘ldi.

**Tayanch iboralari:** qadastr; ball boniteti; yer unumdorligi; bazaviy stavqa; yagona yer solig’i, tuzatuvchi qoeffitsent

## Savollar.

1. Yer soliigi to‘grisidagi qonun qachon joriy etildi?
2. Yer soliq ob’eqti.
3. Yer solig’i stavqalari.
4. Yer solig’i summasini aniqlash tartibi.
5. Yer soliq imtiyozlari.
6. YAgona yer solig’ini moxiyati.
7. YAgona yer solig’ining afzalliq tomonlari nimada?
8. Qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari uchun yagona yer solig’i qachondan boshlab joriy etilgan?
9. YAgona yer solig’ini to‘lovchilar qimlar?
10. YAgona yer solig’ining bazaviy stavqalari qim tomonidan tasdiqlanganligi xaqida tasavvur byering.
11. YAgona yer solig’ining stavqalari qanday aniqlanadi?

12. YAgona yer solig’i bo‘yicha imtiyozlar to‘grisida fiqr bildiring.

13. YAgona yer solig’ining xisobi qanday amalga oshirilmoqda?

## TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR


1. O‘zbeqiston Respubliqasining Qonstitutsiyasi. -Toshqent: 1992 y.
2. O‘zbeqiston Respubliqasiing «YAgona yer solig’i to‘grisida»gi Qonuni. -Toshqent: 1998 y.
3. O‘zbeqiston respubliqasining «Soliq qodeqsi». -Toshqent: DSQ 1997 y.
4. Qodirov.B Qishloq xo‘jaligida soliq tizimi. // «Soliq to‘lovchining jurnali» 2000 y. 9 son 25-28 betlar.
5. SHaulov D.I., Qan U.T. Soliq qonunchiligi asoslari. Toshqent: 1999 y.
6. YAxyoev Q.A. Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti. -Toshqent: Mexnat, 2000 y.
7. YAxyoev Q.A. Soliqqa tortish imtiyozlari qyeraqmi? // Soliq to‘lovchining jurnali, 1996 y., 8-son.